

O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISHDA RAQAMLI BOSHQARUV VA PREVENTIV HUQUQIY MEXANIZMLARNING ROLI

Farangiz Z. Ibragimova

Assistant o‘qituvchi Davlat huquq fanlar kafedrası,

Samarqand davlat universiteti, O‘zbekiston

ibragimovafarangiz@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20756575>

Korrupsiya zamonaviy davlat boshqaruvi tizimining eng dolzarb va murakkab muammolaridan biri bo‘lib, u davlat institutlarining samaradorligini pasaytiradi, iqtisodiy rivojlanishga to‘sqinlik qiladi hamda fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini susaytiradi. Global miqyosda korrupsiya boshqaruv sifatini zaiflashtiruvchi asosiy omil sifatida qaralib, u demokratik institutlar barqarorligiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashishda an‘anaviy jazolashga asoslangan yondashuv bilan bir qatorda zamonaviy preventiv mexanizmlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, raqamli boshqaruv tizimlarining rivojlanishi korrupsiyani oldini olishda samarali vosita sifatida e‘tirof etilmoqda. Elektron davlat xizmatlari, ochiq ma‘lumotlar portallari va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlari inson omilini kamaytirish orqali korrupsion xavflarni sezilarli darajada qisqartiradi.

Ilmiy adabiyotlarda ta‘kidlanishicha, korrupsiyani kamaytirish faqat repressiv choralar bilan emas, balki tizimni oldindan himoya qiluvchi preventiv yondashuv orqali ham amalga oshirilishi lozim. Daniel Kaufmann “Davlat boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish korrupsiyani kamaytirishda muhim omil”¹ ekanligini ta‘kidlab, governance sifatining yaxshilanishi korrupsion risklarni pasaytirishini asoslab beradi. Ushbu tezisning asosiy maqsadi O‘zbekistonda korrupsiyaning oldini olishda raqamli boshqaruv va preventiv huquqiy mexanizmlarning rolini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ushbu yo‘nalishda ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

O‘zbekistonda raqamli boshqaruv tizimlarini rivojlantirish korrupsiyaning oldini olish siyosatining muhim yo‘nalishiga aylanib bormoqda. Davlat xizmatlarining elektron shaklga o‘tkazilishi, onlayn platformalar orqali murojaatlar qabul qilinishi hamda raqamli identifikatsiya tizimlarining joriy etilishi boshqaruv jarayonlarida shaffoflikni oshirib, inson omilini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bu esa o‘z navbatida byurokratik jarayonlarda subyektiv qarorlar qabul qilinishini cheklab, korrupsion xavflarni pasaytiradi.

Preventiv huquqiy mexanizmlar korrupsiyani oldini olish tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Xususan, davlat xizmatchilarining axloqiy standartlari, ichki audit tizimlari, risklarni baholash mexanizmlari hamda institutsional nazorat vositalari korrupsiyaviy holatlarning yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan. Jeremy Pope korrupsiyaga qarshi samarali tizim haqida fikr bildirar ekan, “Halollik (integrity) tizimlari faqat jazolashga emas, balki asosan korrupsiyaning oldini olishga e‘tibor qaratishi kerak”² deb ta‘kidlaydi, bu esa preventiv yondashuvning ustuvorligini ko‘rsatadi. Raqamli boshqaruv va ochiq ma‘lumotlar tizimlari korrupsiyaga qarshi kurashishda yangi bosqichni shakllantirmoqda. Estoniyada davlat xizmatlarining 99 foizi elektron shaklda amalga oshirilishi natijasida inson omili deyarli yo‘q qilingan. Singapurda esa davlat xizmatchilarining faoliyati qat‘iy axloqiy kodeks va doimiy

¹ Kaufmann, D. (2020). Governance and Anti-Corruption Reforms in Transition States. Washington, DC: World Bank Publications.

² Pope, J. (2000). Confronting Corruption: The Elements of a National Integrity System. Transparency International.

monitoring asosida nazorat qilinadi. Janubiy Koreyada “open data” siyosati orqali davlat xarajatlari va qarorlarining ochiqligi ta’minlanib, jamoatchilik nazorati kuchaytirilgan.

Raqamli transformatsiya va korrupsiya o’rtasidagi bog’liqlikni tahlil qilinib, “Raqamli boshqaruv tizimlari davlat xizmatlarida inson omili va subyektiv qaror qabul qilish imkoniyatini kamaytirib, shu orqali korrupsion xavflarning yuzaga kelish ehtimolini pasaytiradi”³ degan xulosani ilgari suriladi. Bu yondashuv raqamlashtirishning korrupsiyani kamaytirishdagi bevosita rolini asoslaydi. Shuningdek, United Nations Office on Drugs and Crime tavsiyalariga ko’ra, davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan birga institutsional shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali yo’li hisoblanadi. Shu jihatdan, O’zbekiston tajribasida raqamli boshqaruv va preventiv huquqiy mexanizmlarni uyg’un rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirganda shuni ta’kidlash mumkinki, O’zbekistonda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan islohotlar tizimli xarakter kasb etib, raqamli boshqaruv va preventiv huquqiy mexanizmlar davlat siyosatining muhim yo’nalishiga aylangan. Raqamlashtirish jarayonlarining kengayishi davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish, byurokratik to’siqlarni kamaytirish hamda qaror qabul qilish jarayonida inson omilini cheklash orqali korrupsion xavflarni kamaytirishda sezilarli natijalar bermoqda. Shu bilan birga, amaldagi tizimda ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, barcha sohalarida raqamlashtirish jarayonlari to’liq yakunlanmaganligi, ayrim davlat xizmatlarida inson omilining saqlanib qolayotgani hamda ichki nazorat mexanizmlarining bir xil darajada ishlamasligi korrupsiyaviy xavflarni to’liq bartaraf etishga to’sqinlik qilmoqda. Bu holat korrupsiyaga qarshi siyosatni yanada takomillashtirish zarurligini ko’rsatadi.

Raqamlashtirishning korrupsiyani kamaytirishdagi samarasi shundan iboratki, u davlat xizmatlarini avtomatlashtirish orqali subyektiv qarorlar qabul qilinishini cheklaydi, jarayonlarni ochiq va kuzatiladigan qiladi hamda fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratadi. Natijada davlat boshqaruvida hisobdorlik va shaffoflik darajasi oshadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, davlat boshqaruvida to’liq elektron hukumat (e-gov) tizimini shakllantirish va barcha davlat xizmatlarini raqamli platformalarga o’tkazishni jadallashtirish zarur.

Ikkinchidan, korrupsion xavflarni oldindan aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan compliance tizimini davlat organlarida majburiy ichki nazorat mexanizmi sifatida joriy etish lozim.

Uchinchidan, institutsional shaffoflikni kuchaytirish maqsadida davlat organlarining qaror qabul qilish jarayonlarini ochiq ma’lumotlar asosida yuritish va hisobdorlikni oshirish muhimdir.

To’rtinchidan, jamoatchilik nazoratini kengaytirish, fuqarolik jamiyati institutlari va OAVning korrupsiyaga qarshi kurashdagi rolini institutsional darajada mustahkamlash zarur.

Umuman olganda, korrupsiyaning oldini olishda raqamli boshqaruv va preventiv huquqiy mexanizmlarning uyg’un rivojlanishi eng samarali yo’nalishlardan biri bo’lib, ushbu tizimni yanada takomillashtirish davlat boshqaruvida shaffoflik va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1.O’zbekiston Respublikasi Qonuni (2017). “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”.

³ OECD. (2020). Digital Government Review: Enhancing Transparency and Integrity in Public Sector. Paris: OECD Publishing.

2. Kaufmann, D. (2020). Governance and Anti-Corruption Reforms in Transition States. Washington, DC: World Bank Publications.
3. Pope, J. (2000). Confronting Corruption: The Elements of a National Integrity System. Transparency International.
4. OECD. (2020). Digital Government Review: Enhancing Transparency and Integrity in Public Sector. Paris: OECD Publishing.